

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
Rektori D.Sh.Xodjayeva
29-avgust 2025-yil

MUMTOZ TARIXIY POETIKA
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100 000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110 000 – Ta’lim
Magistratura mutaxassisligi:	70110701 – O‘zbek tili va adabiyoti

Qo‘qon – 2025

Fan/Modul kodi MTP1105		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1	Kreditlar 5
Fan/Modul kodi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Mumtoz tarixiy poetika 1-semestr	Ma'ruza-30 Seminar-30	90	150
2	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – “Mumtoz tarixiy poetika” fani tavsifiy, tarixiy, nazariy poetika masalalarini ilmiy nuqtayi nazardan o'rganadi. Adabiy tur va janrlarning shakllanishi, janrlararo munosabat, shakl va mazmun birligi, badiiy san'atlar, she'r tizimi, aruz va barmoq vaznini turli davrlarda yaratilgan ilmiy-nazariy asarlar misolida tadqiq qiladi. Mumtoz adabiy asarlarning poetika masalalarini, badiiy matnni tarkibiy qismlarini o'rganishni maqsad qilgan. Mumtoz tarixiy poetika asoslaridan kelib chiqib, uning tahlil tamoyillarini belgilaydi, konkret matn tahlilida amal qilinadigan usul, uslub va qonuniyatlar ishlab chiqishni hamda ular asosida mumtoz badiiy asarni ilmiy tahlil qilishni nazarda tutadi. Fanning vazifasi – adabiyotshunoslik tarixida mumtoz tarixiy poetikani o'rganuvchi va badiiy matn tahlili bo'yicha shug'ullangan mavjud akademik maktablar faoliyatini o'rganish; - mumtoz badiiy asarlar poetikasi manbalari (risola, tazkira, ilmiy asarlar)ni o'rganish; - mumtoz asarlarni tahlil qilishdagi mavjud yondoshuvlar bilan tanishtirish; - pedagoglarda mumtoz matnning struktural tahliliga kirishish orqali asar mohiyatini anglash va uni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish; - mumtoz badiiy matnlarni tahlil va tadqiq etish, ular asosida ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Adabiyotshunoslikka oid fanlar tizimida tarixiy poetikaning mohiyati va o'rni (2 soat) Nazariy poetika, tarixiy poetika va adabiyot tarixi. Tarixiy poetikaning predmeti. Tarixiy poetikaning metodi. Mumtoz tarixiy poetika shakllangan davr va uning asoschilari. A.N.Veselovskiyning “Tarixiy poetika” asari va uning predmeti. Tarixiy			

poetikaning maqsad va vazifalari. Tarixiy poetika mumtoz adabiyotning nazariy tarixi ekanligi (Yu.B.Boriyev). Tarixiy poetikani davrlashtirish

2-mavzu. Tarixiy poetikaga oid maxsus asarlar (2 soat)

XI asrdan yaratila boshlangan aruz, qofiya va she'r san'atlaridan bahs etuvchi janrlar tasnifi. "Kans ul-g'aroyib" (Manshur Samarqandiy), "Ziynatnoma" (Rashid Samarqandiy), "Hadoyiq us-sehr" (Rashid Vatvot) asarlarining mundarijasi. Aruz qonun-qoidalariga bag'ishlangan "G'oyat ul-aruzayn" (Ali Bahromiy) va boshqa janrlar mohiyati. "Kanz ul-qofiya", "Tarjimon ul-balog'a" (Umar Roduyoniy) asarlarining yaratilishi va adabiy-tanqidiy qarashlar tarixida tutgan o'rni.

3-mavzu: Mumtoz adabiyotda tarixiy poetikaning joriylanishi(2 soat)

Ilmi adabning shakllanishi va tarkibi. Ilmi adab *adab madaniyati* ta'sirida paydo bo'lgani. Hind, arab, fors va turkiy adabiyotda adab adabiyotining shakllanishi va o'ziga xos jihatlari. Adab adabiyotining vakillari: al-Joxiz, Ibn Qutayba, Abu Xayyon at-Tavxidiy. "Funun ul-balog'a"da poetikaning asosiy masalalari: adabiy nav'lar va she'riy janrlar, aruz, qofiya, balog'at ilmlari. Ilmi bade' tarixiy poetikaning predmeti sifatida ("Xadoyiq us-sehr", "Badoyi' us-sanoyi"). Aruz risolalarining tarixiy poetika shakllanishidagi o'rni (Alisher Navoiy va Bobur). Tazkirachilik tarixida ijodkor shaxsiyati va adabiy jarayon muammolari ("Yatimat ad-dahr"). Tazkiralarda adabiy muhit, adabiy janrlar va ijodkor shaxsiyati, ijod mas'uliyati masalalari ("Muzakkiri ahbob" va b.). Tazkiralarda janrlar tasnifi (Davlatshoh Samarqandiydan Ahmad Tabibiychacha).

4-mavzu. Farobiy va Beruniyning adabiy-nazariy qarashlari (2 soat)

Abu Nasr Farobiy va Abu Rayhon Beruniyning hayot yo'li. Olimlar ijodining mundarijasi. Abu Nasr Farobiy va Abu Rayhon Beruniyning adabiy-tanqidiy qarashlari. Farobiy va Beruniy ijodida komil inson talqini

5-mavzu. Tarixiy manbalar va adabiy janrlar munosabatlari.

Hikoyatlar poetikasi (2 soat)

Rashididdinning "Jome' ut-tavorix" asari. Asardagi turkiy xalqlar tarixiga oid afsonalar va hikoyatlar; hikoyatlarda tarixiy shaxslarga ijodkor munosabati. Hikoyatlarda badiiylik mezonlari. "Jome' ut-tavorix" va "To'rt ulus tarixi'da hikoyat janridagi o'ziga xosliklar. Hikoyatlarda ayrim tarixiy shaxslarning ideallashtirilishi va tarixiylik tamoyillari.

6-mavzu. Adabiy janrlar poetikasi (2 soat)

Janrlar kanoni va janrlar orqali fikrlash. Janrlarning eydetik bosqichga mansubligi. Qat'iy va erkin janrlar shakllari: g'azal, ruboiy, tuyuq, xokku va b. Adabiy janrlarning tarixiy kategoriyaga mansubligi. Qadimgi turkiy adabiyotda janrlar poetikasi. Adabiy tur tushunchasi va uning ifodalanish shakllari (nasr, nazm). Mumtoz adabiy manbalarda she'r nav'lari bilan bog'lik qarashlar. "Funun

ul-balog‘a” asarida she‘r nav‘lari tasnifi: ifodalanish shakllari va mavzular bo‘yicha tasnif. Baytli she‘r shakllari. Fazal va uning turlari. Qasida va uning tarkibiy tuzilishi. Mustazodning janr xususiyatlari. Kichik lirik janrlar tavsifi

7-mavzu. Adabiy tur va janrlararo munosabat (2 soat)

Mumtoz badiiy matnda ifoda shakli (nazm, nasr)ning farqlanish tamoyillari. Mumtoz asarlarning adabiy tur jihatdan tasnifi va bir turdagi adabiy asarlar tahlili. Janr va uslub muammolari. Adabiy janrda badiiy nutq tabiati. Janr va shakl munosabati tahlili. Adabiy janrlarning shakllanish omillar

8-mavzu. Turkiy poetika (2 soat)

Turkiy poetika haqidagi qarashlar (A.F.Korsh, G.Kovalskiy, I.V.Stebleva, V.M.Jirmunskiy va boshqalar.). Turkiy she‘riyatning paydo bo‘lishi, ritm va she‘rning tovush tuzilishi. Turkiy she‘riyat va qiyosiy-tarixiy metod, bu metodning tarixiy poetikada tutgan o‘rni. Sharq poetikasi va G‘arb poetikasiga oid asarlarda qiyosiy-tarixiy metodning yoritilishi. Qiyosiy-tarixiy metodning adabiyotshunoslikning boshqa metodlari bilan aloqasi

9-mavzu. Debochalar va ularning nazariy qarashlar tarixida tutgan o‘rni (2 soat)

Debochalarning xususiyatlari va ularning nazariy qarashlar tarixida tutgan o‘rni. Alisher Navoiy, Xorazmiy, Abulg‘ozi Bahodirxon asarlariga yozilgan debochalarning ilmiy qimmat. Nodira, Ogahiy devonlariga yozilgan muqaddimalarining adabiy-nazariy ahamiyati.

10-mavzu. Badiiy obraz poetikasi (2 soat)

Badiiy obraz tushunchasi. Mifologik obrazlar. Tarixiy shaxslar obrazi. Obraz yaratish muammolari. Badiiy obrazlarning shakllanishi. An‘anaviy obraz genezisi va taraqqiyoti. Prototip. Bosh qahramon tushunchasi. Epizodik obrazlar talqini.

11-mavzu. Mumtoz poetika masalalarida an‘anaviylik va izdoshlik(2 soat)

Poetik an‘ana va izdoshlik. Xamsanavislik (dostonchilik) an‘anasi. Musammat janriga mansub asarlar tahlilida an‘anaviylik. Poetik timsollarning an‘anaviyligi va ularning tahlili. Poetik talqinlar an‘anaviyligi va ularga munosabat.

12-mavzu. Mumtoz poetikada shakl va mazmun birligi (2 soat)

Mumtoz adabiyotshunoslikda *shakl* va *ma‘no* munosabati. Mazmun mumtoz adabiyotshunoslikda asosiy ilmiy muammo sifatida. Zamonaviy adabiyotshunoslikdagi *shakl* va *mundarija* munosabatlarini o‘rganish. Mumtoz adabiyotshunoslikda *surat* va *ma‘no* birligi falsafiy qarashlar va tasavufning o‘rni. Arab mumtoz poetikasining asosiy unsurlaridan sanalgan *ma‘no* va *lafz* mohiyati. Islom allomalari surat va ma‘no nisbati haqida. Qur‘oni karimdagi *juz‘* va *kull* tafsifi. Farididdin Attorning Tavhid asrori talqinida yozilgan “Javdar u-z-zot” asari. Jaloliddin Rumiy falsafasida *ma‘no* *ishq* talqinida va boshqalar.

13-mavzu. Mumtoz she'riy matnni tarkiblab tushunish va tahlil etish tamoyillari (2 soat)

She'riy nutq va uning o'ziga xos xususiyatlari. Mumtoz she'r navlari, ularning janr o'ziga xosliklari. Mumtoz she'r ritmikasi. Aruz vazni talablari asosida tahlil. Mumtoz qofiya va uning struktural tahlildagi o'rni. Mumtoz she'riy matnlarda badiiy san'atlar va ularning matn poetikasidagi o'rni.

14-mavzu. Mumtoz badiiy matn tarkibi va uni tahlil qilish (2 soat)

Mumtoz badiiy matnga xos xususiyatlar. Mumtoz asarlarning ichki qurilishi. Mumtoz adabiyotshunoslikda badiiy shakl va mundarija munosabati va ularning komponentlari. Badiiy shakl elementlari va ularni tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar. Mumtoz tarixiy poetikaning kategoriyalar tizimi. Struktur tahlil predmeti

15-mavzu. Badiiy matnda timsollar tizimining tahlili (2 soat)

Mumtoz adabiyotda poetik timsol va uning badiiy matn tarkibidagi o'rni. Badiiy asardagi an'anaviy obrazlar. Poetik obraz turlari va ularni tahlil qilish tamoyillari. Mumtoz badiiy matn sathlari va ularni tarkiblash tamoyillari. Timsol va badiiy san'atlar o'rtasidagi munosabat.

III. Seminar mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Seminar mashg'ulotlarini tashkil qilishda tavsiya etilgan ilmiy muammo yoki masala yuzasidan magistr'larga avvaldan seminar rejasi va unga muvofiq adabiyotlar ro'yxati beriladi. Seminar mashg'ulotlariga ko'proq nazariy muammolar olib chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Magistr'lar seminar mashg'ulotlarida fan bo'yicha nazariy va amaliy ma'lumotlarga ega bo'ladilar hamda ularning o'zlashtirilgan ma'lumot asosida mumtoz tarixiy poetika haqida tushunchaga ega bo'lishlari ko'zda tutiladi.

Tavsiya qilinayotgan seminar mashg'ulot mavzulari:

1-mavzu. "Yusuf va Zulayho" dostoni tahlil qilish. (2 soat)

Reja:

1. Dostonning obrazlari poetikasi tahlil qilish.
2. Undagi tashbeh, mubolag'a, tazod kabi ma'naviy va lafziy san'alarni, badiiy tasvir vositalarini aniqlash

2-mavzu. "Xusrav va Shirin" dostoni asosida badiiy tasvir vositalari poetikasini o'rganish. (2 soat)

Reja:

1. Ma'lumotlarni takrorlash.
2. Badiiy tasvir vositalari to'g'risida tushunchalarni mustahkamlash.
3. Dostondagi badiiy tasvir vositalarini aniqlash va tahlil qilish.

3-mavzu. O'zbek adabiyotshunosligida tarixiy poetikaning o'rganilishi. (2 soat)

Reja:

1. Ilk mifik tafakkurning xususiyatlari, ibtidoiy inson va tashqi olamning o'xshashligi.
2. Arxaik miflar, xalq og'zaki ijodi, ilk yozma manbalar, mumtoz adabiyot namunalari tarixiy poetikaning ob'ekti sifatida.

4-mavzu. Xamsanavislik. (2 soat)

Reja:

1. Muqaddima va xotimalarning dostonlar g'oyaviy mundarijasi bilan bog'liqligi.
2. Mumtoz badiiy matnga xos xususiyatlar. Mumtoz asarlarning ichki qurilishi.
3. Mumtoz adabiyotshunoslikda badiiy shakl va mundarija munosabati va ularning komponentlari.
4. Badiiy shakl elementlari va ularni tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar.
5. Mumtoz tarixiy poetikaning kategoriyalar tizimi. Struktur tahlil predmeti

5-mavzu. "Devon" debochalarining poetik ahamiyati. (2 soat)

Reja:

1. Debochalarning xususiyatlari va ularning nazariy qarashlar tarixida tutgan o'ri.
2. Alisher Navoiy, Xorazmiy, Abulg'azi Bahodirxon asarlariga yozilgan debochalarning ilmiy qimmati.
3. Nodira, Ogahiy devonlariga yozilgan muqaddimalarining adabiy-nazariy ahamiyati.

6-mavzu. Qays Roziy va mumtoz adabiyot poetikasi masalalari. (2 soat)

Reja:

1. Mumtoz adabiyotda poetik timsol va uning badiiy matn tarkibidagi o'ri.
2. Badiiy asardagi an'anaviy obrazlar.
3. Poetik obraz turlari va ularni tahlil qilish tamoyillari.
4. Mumtoz badiiy matn sathlari va ularni tarkiblash tamoyillari.
5. Timsol va badiiy san'atlar o'rtasidagi munosabat.

7-mavzu. A. Taroziyning "Funun ul balog'a" asari - mumtoz poetikaga oid nodir manba. (2 soat)

Reja:

1. Asarni to'liq o'qib, tahlil qilish.
2. Undagi aruzga oid.
3. She'riy san'atlarga tahliliga oid qismlarini boshqa adabiy asarlar misolida tahlil qilish.

8-mavzu. Abdurahmon Jomiy “Haft avrang” asari badiiy xususiyatlari. (2 soat)

Reja:

1. Ma’lum bir dostonni tanlab olib, undagi orazlar poetikasi, syujet, kompozitsiya masalalarini o’rganish.
2. Didaktik asarlarning badiiy adabiyotdagi o’rnini tahlil qilish.

9-mavzu. Alisher Navoiy va nazariy poetika masalalari.(2 soat)

Reja:

1. Mumtoz poetika masalalari ilmiy tizim sifatida.
2. Ilmiy va badiiy tahlil o’rtasidagi nisbat.
3. Mumtoz poetikada badiiy so’z o’rni.
4. Mumtoz badiiy matnni tizimli o’rganish asoslari.
5. Mumtoz poetikaning shakllanishida asos bo’lgan konsepsiyalar.

10-mavzu. Navoiy devonlarining janriy tarkibi. (2 soat)

Reja:

1. Lirik asarlarda irfoniy mazmun va badiiy timsollarning ramziy xususiyatlari.
2. Hamd va na’t, orifona, oshiqona va rindona g’azallarda irfon va badiiyatning uyg’unligini Alisher Navoiyning g’azallari misolida o’rganiladi.
3. G’azallarda irfon va badiiyatning uyg’unligini Alisher Navoiyning g’azallari misolida o’rganiladi.

11-mavzu. “Xamsa” an’analariga izdoshlik va poetik mahorat. (2 soat)

Reja:

1. Firdavsiy “Shohnoma”si epik she’riyatning ilk namunasi sifatida.
2. Xamsanavislik an’anasi. Nizomiy dostonlarining yaratilish tarixi.
3. Dehlaviy “Xamsasi”. “Haft avrang”ning tarkibiy tuzilishi, ularning xamsachilikda ko’tarilgan muammolarga aloqadorligi.
4. Navoiy turkiy tilda “Xamsa” bitgan shlir sifatida.

12-mavzu. “Xamsa”lar asosiy timsollarining qiyosiy tahlili. (2 soat)

Reja:

1. “Xamsa” obrazlarning tasavvufiy mazmun masalasini “Hayrat ul-abror” dostonidagi obrazlar misolida o’rganiladi.
2. “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlarida soliklik va majzublik masalasi.
3. “Sab’ai sayyor” dostonida futuvvat g’oyalari talqini.

13-mavzu. Alisher Navoiy va Boburning aruzshunoslikka qo’shgan hissasi. (2 soat)

Reja:

1. Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” va Boburning “Risolai aruz” asarlari misolida bu ulug’ ijodkorlarning aruz ilmiga qo’shgan hissasini qiyoslab o’rganish va tahlil qilish.

14-mavzu. Mumtoz matnni poetik tahlil qilish usullari. (2 soat)

Reja:

1. She'riy nutq va uning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Mumtoz she'r navlari, ularning janr o'ziga xosliklari.
3. Mumtoz she'r ritmikasi. Aruz vazni talablari asosida tahlil.
4. Mumtoz qofiya va uning struktural tahlildagi o'rni.
5. Mumtoz she'riy matnlarda badiiy san'atlar va ularning matn poetikasidagi o'rni.

15-mavzu. "Qisasi Rabg'uziy" hikoyatlari poetikasi. (2 soat)

Reja:

1. Qur'oni karim oyatlari va hadisi sharifdagi fikrlarning badiiy adabiyotga ko'chishida foydalanilgan adabiy usullar va ijodkor mahoratini o'rganish.
2. "Qissai anbiyo", "Tazkirat ul-avliyo" tipidagi asarlar bilan yaqindan tanishtirish.

IV. Mustaqil ta'limning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'limning tavsiya etilayotgan mavzulari:

1. Beruniyning "O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobidan islomdan oldingi diniy oqimlarga oid qismini o'rganish va konspektlashtirish
2. "Qutadg'u bilig" bo'yicha yaratilgan tadqiqotlarning bibliografiyasini tuzish va muhim tadqiqotlarga annotatsiya yozish.
3. Mumtoz adabiyot bo'yicha himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyalari avtoreferatlari bilan tanishish va ularga taqriz yozish.
4. Tarixiy poetikaga oid dissertatsiyalar avtoreferatlariga taqriz yozish.
5. Lirik janrlar poetikasiga doir tadqiqotlarga (maqola, avtoreferat) taqriz yozish.
6. Epik janrlar poetikasiga doir tadqiqotlarga (maqola, avtoreferat) taqriz yozish.
7. Abu Nasr Farobiyning "Shoirlarning she'r yozish san'ati qonunlari haqida" asarini o'rganish (arabchadan A.Irisov tarjimasi).
8. Abu Rayhon Beruniyning "Hindlarning grammatika va she'r haqidagi kitoblari bayoni" asarini o'qish (arabchadan A.Irisov tarjimasi).
9. Abu Abdulloh Xorazmiyning "Mafotihul-ulum" asaridan ayrim o'rinlarni mutolaa qilish (M.Ziyovuddinova tarjimasi).
10. Shamsiddin Qays Roziyning "Al-mo'jam" asarini o'qish (forschadan H.Boltaboyev va D.Yusupova tarjimasi).
11. Umar Roduyoniyning "Tarjumonul-balog'a" asarini o'qish (forschadan H.Boltaboyev va D.Yusupova tarjimasi).
12. Shayx Ahmad Taroziyning "Fununul-balog'a" asarini o'qish.
13. Abdurahmon Jomiyning "Risolai qofiya" asarini o'qib o'rganish (D.Yusupova tarjimasi).
14. Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn», «Mezon ul-avzon» asarlarini o'qib, o'rganish.
15. Atoulllo Husayniyning «Badoyi' us-sanoyi'» asarini o'qib, o'rganish
16. Boburning «Muxtasar» asarini o'qib o'rganish
17. Zokirjon Furqatning "Shoir ahli va she'r mubolag'asi xususida" asarini o'rganish
18. Fitratning «Adabiyot qoidalari», «Aruz haqida» asarlarini o'qib o'rganish.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, ilmiy maqola yozish tavsiya etiladi.

3 V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

• Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- mumtoz badiiy matnlarni tahlil qiluvchi zamonaviy konsepsiyalarni; - tarixiy poetika asoslari (ritmika, qofiya, poetik san'atlar) va konponentlarining tarkibiy tahlili;

- adabiy-ilmiy maktablar, ularning namoyandalari;

- mumtoz badiiy matnning talqini va tahlili massalalari

- yangi o'zbek adabiyotidagi mumtoz namunalarning jahon badiiyati xazinasidagi maqomini belgilashni **bilishi kerak**

-mumtoz badiiy matnni talqin etish va unga struktural munosabatda bo'lish;

- badiiy matnning poetik xususiyatlari va ularni tarkiblash jarayonini tushuntira olish;

- mumtoz matnlarni uslubiy tahlil etish;

- adabiy asar tahlilidan adabiy-nazariy xulosalar chiqarish;

- ilmiy fikr va mulohazalarni muayyan tizim asosida ifodalash;

- ilmiy tahlil va talqinda zamonaviy metodologiyani qo'llay bilish;

- struktural tahlilda estetik tahlil tamoyillariga tayanish;

- badiiy matn tahlilida struktural va mumtoz poetika tamoyillariga amal qilish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi kerak;

- adabiyotshunoslik tarixi va nazariyasi yuzasidan egallagan bilimlari asosida adabiyotshunoslikdagi tarixiy poetikaning o'zni va badiiy tarkiblash jarayonini tushuntira olishi;

- badiiy asarlarni tahlil qilishning an'anaviy va yangicha usullarini farqlash, an'anaviy tarixiy poetika tamoyillariga mumtoz badiiy matnlar tahlili orqali erishish, tahlil jarayonida milliy mustaqillik g'oyalariga amal qilgan holda ish ko'rishi; - adabiy-badiiy tahlil jarayonida mumtoz poetikaning o'zni va amaliy natijalari yuzasidan umumlashma ilmiy xulosalar chiqara bilish va badiiy matnni mustaqil tahlil qilish usullarini ishlab chiqish **layoqatlariga ega bo'lishi kerak.**

4 VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

fanni o'zlashtirishda o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, amaliy mashg'ulot shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ta'lim sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, audio-video materiallar hamda texnik vositalardan foydalaniladi. Mashg'ulotlar rivojlantiruvchi, muammoli, hamkorlik, o'yin texnologiyalari va qator metodlari orqali tashkil etiladi.

- Aqliy hujum;
- Muammoli vaziyat;
- Ilmiy-tadqiqot;

	• Bahs-munozara; • Keys kabilar. • Konseptual jadval. • Blits so'rov. • Venn diogrammasi. • Tushunchalar tahlili. • Charxpalak. • Baliq skeleti.
5	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: • Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'la aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritishva joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarnibajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish uchun quyidagi talablarni bajarish lozim: - o'zbek tili va adabiyoti sohasida olingan nazariy amaliy bilimlarni qo'llash orqali ilmiy tadqiqotlar olib boorish; - badiiy asarni, adabiy va boshqa matnlarni badiiy tahlil etish hamda uning metodlarini dars davomida qo'llay olish; - olingan nazariy va amaliy bilimlarni amaliyotga tatbiq qila olish; - internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish; - ilmiy-tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lish kerak.
6	VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari Asosiy adabiyotlar: 1. Sharq mumtoz poetikasi manbalari. Tuzuvchi: H.Boltaboev. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1-kitob. 2008. Qo'shimcha adabiyotlar: 1. Arastu. Poetika. Axloqi kabir.-T.: Yangi asr avlodi. 2004. 2. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi.-T.: O'zbekiston. 1993. 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi farmoni. (Xalq so'zi 2017 yil, 8-fevral). 4. Stebleva I.V. Ritm i smysl v tyurkoyazychnoy klassicheskoy poezii. Moskva, "Vostochnaya literatura", 1993 5. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik.-T.: «Fan», 1978-1979. 6. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. Asarlar. O'n besh tomlik. 14-tom. T.: «Fan», 1967. 7. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi.-T.: «O'qituvchi», 2002. 8. Fitrat. Adabiyot qoidalari.-T.: «O'qituvchi»,1995. 9. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.-T.: «Xalq merosi» nashriyoti, 2004. 10.Rahmonov V. She'r san'atlari.-T.: «Yozuvchi», 2001.

- 11.Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati.-T.: «Sharq», 1999.
- 12.Baxtin. M.M. Literaturno-kriticheskie stati.-M.: «Xudojestvennaya literatura», 1986.
- 13.Bushmin A. Nauka o literature.-M: «Sovremennik », 1980-334s.
- 14.Raxmonov Nasimxon Askarovich.Xudojestvennye osobennosti pamyatnika Kyul Tiginu. Dis .kon. nauk. T .1983. B-180.
- 15.Dostoevskiy F.M. Vozvращение cheloveka. – M., «Sov. Rossiya», 1989. -560 s.
- 16.Xalizev V. E. Teoriya literatury. Uchebnik. -M.: «Vysshaya shkola», 1999
- 17.Uellek R., Uorren O. Teoriya literatury. -M.: «Iskusstvo», 1978.
- 18. Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. – M.: Nauka, 1989.**
19. Lotman YU.M. O poetax i poezii. Analiz poeticheskogo teksta. – Sankt-Peterburg, 1996.
20. Potebnya A.A. Teoreticheskaya poetika. – M.: Nauka, 1990.
21. Cohen J. Structure du langage poetique. Paris: Flammarion, 2066.
22. Jakobson R. Essais de linguistique generale. Paris, Minuit, 2009, ch. 11
23. Ruwet N. L’analyse structurale de la poesie // Linguistics, 2, dec. 2013.
24. Analyse structural d’un poeme francais // Linguistics, 3, janv. 1964.
25. Nerys Williams. Contemporary Poetry. Edinburgh University Press, 2011.
- 26.Sirojiddinov Sh. O‘zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. T.: Yangi asr avlodi, 2011.
- 27.O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-2 jild. - Toshkent: Fan, 2005, 2007.
- 28.Imomov Komiljon. O‘zbek xalq nasri poetikasi. Toshkent. Fan, 2008.
- 29.Norboev Botir Jumaniyozovich. Hayotni poetik talqin etish tamoyillari va mahorat muammolari. (60-80 yillar o‘zbek lirikasi misolida).f-f-dok.dis-ya avtoreferati. –T.: 1996.
- 30.Tomatov Xudoyberdi Qurbonovich. O‘zbek xalq dostonlarida poetik ko‘chimlar. f.f.n. dis-ya. -T.: 2002.
- 31.Sobir Mirvaliev. O‘zbek adabiyotida roman janrining tarkib topishi va taraqqiyoti. Fil.fan.dok . dis-ya. -T.:1971.
32. Malik Murodov. Go‘ro‘g‘li dostonlarining janr va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.
33. Jumanazarov Umurzoq. O‘zbek tarixiy folklorining janriy xilma-xilligi va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.f.f.d. dis-ya. -T.:1991. 365-bet.

Axborot manbalari:

<http://natlib.uz> –Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti

<http://qr.natlib.uz> — QR-kodli darslik, o‘quv qo‘llanma va badiiy adabiyotlar

<http://media.natlib.uz> — audio va video materiallar

<http://diss.natlib.uz> — dissertatsiyalar va avtoreferatlar

<http://nodir.natlib.uz> — qo‘lyozma va nodir nashrlar

<http://ensiklopediya.uz> – O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti

<http://ziyouz.uz> – O‘zbek va jahon adabiyoti portali

<http://ziyonet.uz> –O‘zbekiston milliy ta’lim portali

<http://kitob.uz/> - Respublika bolalar kutubxonasi

Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan

Tuzuvchi:

**y M.Djurayev – O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari
hfalsafa doktori (PhD)**

Taqrizchilar

M.Siddiqov - O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

**B.Abdurahmonova - O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari
nomzodi.**